

PEDAGOGIK METODLARNI O'RGANISH VA O'ZLASHTIRISH. TALABALARNING BILIM KO'NIKMA VA MALAKALARINI TASHXIS ETISH YO'LLARI

Axmedova Gulmira

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Tibbiyot fanlari nomzodi

Maxmudova Mashxura

Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq 2- kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada pedagogik metodlarni o'rganish va o'zlashtirish, talabalarning bilim ko'nikma va malakalarini tashxis etish yo'llari haqida ma'lumot beriladi. Maqolada shuningdek, ta'lim, xususan pedagogika sohasiga bo'lgan e'tibor va uning rivoji uchun amalga oshirilgan islohotlar haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Zamonaviy pedagogika, metodika, tashxis, nazorat, dinamika*

KIRISH

Hozirgi kunda pedagogika ijtimoiy hayotning ajralmas qismi sifatida ta'limtarbiyaning maqsadi, vazifalari, davlat ta'lim standartlari, ta'lim va tarbiya shakllari, metodlari, vositalari, pedagogik faoliyatni tashkil qilish shakllari, mexanizmlari, uning qonuniyatlari haqida bilim, ma'lumot beruvchi, pedagogik mahorat sirlarini o'rgatuvchi fanga aylandi.

Boshqa fanlar singari pedagogika ham jamiyatning talab va ehtiyojlari asosida shakllanib, jamiyat ijtimoiy taraqqiyoti bilan uzviy rivojlanib bormoqda. Shu sababli ta'lim-tarbiya jarayonini ijtimoiy hayotning ajralmas qismi deb qarash lozim. Ana shunday umumbashariy ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy voqelik, hodisa, ijtimoiy tasavvur va ehtiyoj mamlakatimizda shaxsni markaziy figura sifatida tan olinishi va rivojlanishning harakatlantiruvchisi tarzida baholanishi respublikamizda ta'lim tizimini rivojlantirishning konseptual asoslarini chuqur o'rganishni taqozo etadi.

2017 yil 7 fevralda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" da mamlakatda yangi mazmundagi uzluksiz ta'lim tizimini yaratish vazifasi qo'yildi, uning tarkibida esa yangi mazmun va mohiyatdagi innovatsion oliy ta'lim tizimini shakllantirish bosh yo'nalish sifatida belgilandi hamda ta'lim jarayoni sub'ektlari faoliyatini innovatsion tashkil etish texnologiyalarini takomillashtirishga yo'naltirildi.


Zamonaviy pedagogikaning metodologiyasiga e'tiborning kuchayishi, bejiz emas. Mamlakatimizda demokratik tamoyillarning qaror topishi, kuchli huquqiy davlat zamirida ochiq fuqarolik jamiyati qurilganligi ta'lim va tarbiyaga yangicha mohiyat, mazmun, atribut baxshida etayotganligida o'z aksini topmoqda. Bu yangi modelning muvaffaqiyati ko'p jihatdan zamonaviy pedagogikaning rivojlanish darajasiga bevosita bog'liqdir.

ASOSIY QISM

Pedagoglarning kasbiy mahoratining asosiy komponentlaridan biri o'quv tarbiya jarayonini to'g'ri va samarali boshqara olishidir. Buning uchun pedagog texnik va uslubiy bilimlarni puxta egallaganli yetarli emas. Pedagog o'z ishi, faoliyati natijalarini tahlil qilishi, o'quvchilarda qiyinchilik tug'dirayotgan sabablarni o'z vaqtida aniqlashi, bu qiyinchiliklarni o'quvchiga individual yondoshish jarayonida bartaraf qila olishi lozim.

Metodika (uslubiyat)- muayyan sohaga oid o'qitish va o'rganishning qonuniyatlarini tadqiq etadi. Metodika maxsus va uzluksiz ta'lim bosqichlaridagi pedagogikalar kabi ta'limning o'ziga xos turi va qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda didaktika prinsiplari va umumiy pedagogikadagi qonun-qoidalarni o'z sohasiga moslashtiradi va soha uslubiyatini yaratadi. Pedagogika fanlari tizimining muhim tarmog'i sifatida aniq fanlarni o'qitish va o'rganishning qonuniyatlarini o'rganuvchi uslubiyot (metodika) fanining ham xizmatlari beqiyos kattadir. Hozirgi kunda o'quv muassasalarida Matematika fanlarini o'qitish metodikasi, Tarix fanlarini o'qitish metodikasi, Adabiyot o'qitish metodikasi, Maxsus fanlarni o'qitish va boshqa metodikalari mavjud.

O'quvchilar bilimni tashxis etishning mohiyati. Ta'lim tashxisi mohiyati haqida gapirishdan oldin tashxisni umumiy yondashuv hamda tashxislashni amaliy pedagogik faoliyat jarayoni sifatida qabul qilamiz.



Tashxis - bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demak. Tashxisiz didaktik jarayonni samarali boshqarish, mavjud sharoit uchun optimal natijalarga erishish mumkin emas. Ta'lim tashxisida oqibatlar, erishilgan natijalar va ta'lim olganlik farqlanadi. Shuningdek, ta'lim olganlikni tashxislash vaqtida belgilangan maqsadni amalga oshirishda erishilgan daraja sifatida ham qaraladi. Didaktik tashxisning maqsadi o'quv jarayonini uning samaradorligi bilan bog'liq holda aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat. Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, tashxis ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini an'anaviy tekshirishga nisbatan kengroq va chuqurroq ma'no kasb etadi. Ta'limni baholash yoki tekshirish faqat natijalarni qayd etadi, biroq ularning kelib chiqishini izohlamaydi. Tashxis natijalarini ularga erishish yo'llari va vositalari, usullari bilan aloqadorlikda baholaydi, ta'lim samarasini ta'minlovchi jarayon va bosqichlarni aniqlaydi:

Tashxislashning asosiy tarkibiy qismlari

Natijalar va muhokamalar

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish, baholash tashxislashning zaruriy tarkibiy qismlari sanaladi. Ular pedagogik texnologiyaning ancha qadimiy usullaridir. Nazorat va baholash maktab amaliyoti rivojining doimiy hamrohi bo'lib kelgan. Shunga qaramay, bugun ham baholashning mazmuni, texnologiyalari haqida qizg'in munozaralar davom etmoqda. Avval bo'lgani kabi pedagoglar baho nimani qayd etishi lozimligini aniqlashga urinmoqdalar. Ularning fikrlaricha, bahoning:

1) ta'lim oluvchining o'zlashtirish darajasini qat'iy belgilovchi - sifat ko'rsatkichi, yoki;

2) u yoki bu ta'lim tizimining ustunligi, kamchiliklarini ko'rsatuvchi ko'rsatkich ekanligi aniq belgilanishi zarur.

Ta'limni baholashda ziddiyatli qarashlarning tug'ilishini buyuk pedagog Ya.A.Komenskiy ham ta'kidlab o'tgan edi. U pedagoglarni o'zlari ega bo'lgan baholash huquqidan aql bilan foydalanishga chaqirgan. Ta'lim oluvchilarga nisbatan nazoratning ob'ektiv bo'lishiga erishish didaktik tizimlarning asosida yotadi. Olimlarning ta'kidlashicha, demokratlashgan ta'lim tizimida yuzaki (formal) nazorat bo'lmasligi lozim, Didaktik nazorat ta'limning o'ziga xos metodi sifatida aniq ifodalangan ta'lim beruvchi, rivojlantiruvchi xususiyatga ega bo'lishi o'z-o'zini nazorat qilish bilan birlashishi, eng avvalo, ta'lim oluvchining o'zi uchun zarur va foydali bo'lishi lozim. Ta'lim tizimini demokratlashtirish bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat va baholashdan emas, balki baho yordamida o'qishga undashning murakkab shakllaridan voz kechishni talab qiladi. O'quvchilarning o'quv mehnatini rag'batlantirishning yangi usullarini izlash, ta'lim va tarbiya sohasida kuch to'plab borayotgan shaxsiy foyda tamoyili yangicha yondashuvlarni belgilab beradi. Tashxislash tizimida baho rag'batlantirish vositasi sifatida bir qator afzalliklarga ega.

Xulosa

Birinchi navbatda, baholovchi fikrlar (ballar) qo'llanishi mumkin bo'lgan tashxislash natijalari shaxsning yetuklik darajasini belgilashga ko'maklashadi, bu esa raqobatli ta'lim sharoitlarini yaratishda muhim omil sanaladi. Ta'lim (shuningdek, nazorat)ning ixtiyoriyligi tamoyili bilan boyitilgan baho o'tmishda o'quvchilar uchun majburiy bo'lgan ta'limning zaruriy vositasidan shaxsiy reyting - shaxsning jamiyatdagi mavqei ko'rsatkichini tadrijiy aniqlash usuliga aylanadi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi". 2017 y. 7 fevral.
2. Abdullaeva Sh.A. Pedagogika.-Toshkent:Fan, 2011.-178b.

3. Avliyakov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. – T.: 2001y.
4. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2010y.
5. Anderson, Prue, 1954– Developing tests and questionnaires for a national assessment of educational achievement / Prue Anderson, George Morgan. p. cm.— (National assessment of educational achievement ; volume 2) Includes bibliographical references and index. ISBN 978-0-8213-7497-9 (alk. paper)— ISBN 978-0-8213 7498-6 1. Educational tests and measurements—United States. 2. Educational evaluation—United States. I. Morgan, George, 1945– II. Title. LB3051.A715 2008 371.26'1—dc22.